

FRAZEOLOGIK BUTUNLIK VA FRAZEOLOGIK CHATISHMA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15522409>

Rahmonov Husanboy Abjalil o'g'li

Qo'qon DU o'qituvchisi

Raximjonova Moxidil Dilmurodjon qizi

Qo'qon DU talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada frazeologik birlik, frazemalar tarkibidagi leksemalar ma'nolarining frazema ma'nosi o'rtasidagi munosabatiga ko'ra turlari: frazeologik butunlik va frazeologik chatishma haqida ma'lumot berilgan. Frazeologik butunlik hamda frazeologik chatishmaning o'ziga xos xususiyatlari (farqli tomonlari), umumiy xususiyatlari (o'xshash tomonlari) haqida aytib o'tiladi. Frazemalarning badiiy va publitsistik uslubda o'tkir tasviriy vosita sifatida keng qo'llanilishi haqida umumiy tushunchalar mavjud.

Abstract

This article provides information about types of phraseological units based on the relationship between the meanings of the lexemes within the phrases and the overall meaning of the phrase, specifically focusing on phraseological unity and phraseological fusion. It discusses the distinctive features (differences) and common features (similarities) of phraseological unity and phraseological fusion. The article also presents general concepts regarding the widespread use of phraseological units as vivid expressive means in literary and journalistic styles.

Kalit so'zlar

frazema, frazeologik butunlik, frazeologik chatishma, leksik ma'no, leksema, o'xshashlik, farqlilik, ta'sirchanlik.

Keywords

phraseological unit, phraseological unity, phraseological fusion, lexical meaning, lexeme, similarity, difference, expressiveness.

Ma'lumki, ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan til birligi frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi. Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, yuragiga (ko'ngliga)qil sig'maydi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, sirkasi suv ko'tarmaydi kabilar frazeologik birliklarga misol bo'la oladi. Frazeologizmlar og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda hamda publitsistikada o'tkir, ta'sirchan tasviriy vosita sifatida keng qo'llanadi. Shu

jihtidan frazeologik birliklar tinglovchiga so'zga nisbatan kuchliroq ta'sir qiladi. Frazema ma'nosi bilan uning tarkibida qo'llangan leksemalar ma'nosi o'rtasidagi munosabati turlicha bo'lib, shu jihatdan frazemalar ikki turga bo'lib o'rganiladi. Bular:

- 1.Frazeologik butunlik
- 2.Frazeologik chatishma.

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi. Masalan: 1.Bilib qo'ying. Ish og'ir. Belni mahkam bog'lamasangiz, qiyin bo'ladi (O.Yoqubov). Belni mahkam bog'lamoq iborasi yaxlit holda" astoydil kirishmoq" ma'nosini anglatadi. Bunday ko'chma ma'noga esa kishilarning biror ish qilishdan oldin bellariga qiyiq bog'lab astoydil ishga kirishga lari asos qilib olingan. Demak, frazemaning ko'chma ma'nosini frazema tarkibidagi leksemalar bilan ifodalash mumkin. 2.Ayol kishiga qo'l ko'tarish erkakning ishi emas. (R.Fayziy). Ushbu gapda ham qo'l ko'tarish iborasi "qo'lini yuqoriga ko'tarib urmoq" ma'nosini anglatadi, bunday ko'chma ma'noni esa frazema tarkibidagi so'zlar bilan izohlash mumkin. Tarkibidagi leksemalar orqali frazemalarning ko'chma ma'nolari ifodalanishiga yana bir nechta misollar keltirish mumkin. Masalan, 1. Bu maydon yog' tushsa yalagudek ozoda...(A.Muxtor) .2. Mahmaddona,shumsan-da. Ona suting og'zingda-yu, soqolimning oqiga qaramay aql o'rgataman deysan. (O.)3. Madina Sobirning kinoyali gaplarini eshitganda doim tepa sochi tikka bo'lib ketadi .

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi. Masalan: Xamir uchidan patir iborasi " dastlabki kichik muvaffaqiyat" ma'nosini ifodalaydi. Ya'ni, hali umumiy yo'ldagi kichik bir bosqichdan o'tib olish ,hali oldinda ko'plab ishlar bor degan ma'noni anglatadi. Xamir, patir so'zlari orqali frazemaning ma'nosini ifodalab bo'lmaydi: Qishki sessiyani yaxshi yakunladik, ammo bu hali-xamir uchidan patir (P.Qodirov).. Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq iborasi "Umidi puchga chiqmoq" ma'nosini ifodalaydi. Ushbu ma'noni frazema tarkibidagi leksemalar (tarvuz, qo'ltiq, tushmoq) orqali ifodalab bo'lmaydi : Odamlar qo'ltig'dan tarvuzlari tushib, qishloqqa qaytishdi. (M.Ismoiliy). Frazeologik chatishmaga yana ko'plab misollar keltirish mumkin: 1.Butun gavdasi qizlik latofati bilan yashnagan chog'da boyvachcha uni ko'z tagiga olib qo'ygan edi. (Oybek). 2. Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi! Kapitalagim uchib ketdi. (Oybek).3.Har qaysimiz bitta odamcha o'lib-tirilayotgan bo'lsag-u, qildan qiyiq axtarib, zvenomizni toshbaqa qilib, gazetaga chiqarishsa. (H. Nu'mon)

Birlashtiruvchi belgilar:

Frazeologik

Fraze

ologik

butunlik

1) ikkalasi ham turg'un konstruksiya sanaladi;
2) ikkalasida ham umumlashgan yaxlit bir ma'no (ko'chma ma'no) ifodalanadi;
3) ikkalasida ham uslubiy bo'yoq (uslubiy sema) bo'ladi, chunki frazemalarning barchasi voqelikni nomlash bilan

1) Frazeologik butunlik tarkibidagi so'zlarning ma'nolari frazemaning ko'chma ma'nosini izohlaydi.

2) Frazeologik butunlikning ma'nosida ichki obraz saqlanadi: tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar sezilib turganligidan frazemaning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi.

1) Frazeologik chatishmada esa so'zlar ma'nosi bilan frazema ma'nosi (frazeologik ma'no) o'rtasida bunday aloqa yo'q,

2) Frazeologik chatishma ma'nosining gavdalanishida esa frazema tarkibidagi so'zlarning ma'nolari ishtirok etmaydi, shuning uchun unda ichki obraz so'nggan bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov. H. Hozirgi o'zbek adabiy tili- Toshkent: Talqin,2005 - 220 b.
- 2.Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.– 74 b.
- 3.Til va adabiyot ta'limi. 2021-yil 3-son.
- 4.Til va adabiyot ta'limi. 2021-yil 5-son.
- 5 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдди. I жилд. – Тошкент: О'zbekiston milliy ensiklopediyasi Давлат илмий нашриёти, 2020. – 214 б.
- 6.Раҳматуллаев .Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати- Тошкент: Ўқитувчи,1978- 36 б.
- 7.https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbek_tili.
8. Bakhtiyarova, K. N. (2020). ECOLOGICAL SPECIFICS OF THE USE OF PHEROMONE MONITORING IN AGRICULTURE. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8*(8).
9. Xanxodjayeva, N., Ermatova, S. M., Muradova, U. D., & Sadinov, J. S. (2017). АНТРОПОГЕННОЕ ВЛИЯНИЕ ХИМИЧЕСКИХ ВЕЩЕСТВ НА ПОЧВУ. *Theoretical & Applied Science*, (4), 216-219.
10. Дадаходжаева, М. (2023). Изучение кислородосодержащих органических соединений с помощью интерактивных методов. *Современные аспекты развития фундаментальных наук и вопросы их преподавания*, 1(1), 57-61.
11. Дадаходжаева М.Р. (2023). ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В СФЕРЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ХИМИИ В УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА. *Вестник науки*, 1 (4 (61)), 152-162.
12. Shomurotova, S. X., Movlonova, S. A., & Abdulloyeva, M. R. (2022). Oliy ta'lim muassasalarining fizik-kolloid kimyo kursida "Kolloid sistemalarning olish usullari. Maydalash va kondensatlash" mavzularini o'qitish metodikasi. In *Conference Zone* (pp. 81-82).
13. Movlonova, S. (2021). Oliy ta'lim muassasalarida azotli organik birikmalar mavzularini differensial yondashuv asosida o'qitish. *Jamiyat va innovatsiyalar*.
14. Shomurotova, S. X., Farmonova, S. B., Kamolova, N. I., & Movlonova, S. A. (2020). Improving the Methodology of Teaching the role of metals in Biochemical Processes using Pedagogical Technologies. *Engineering a Management Test*, 83.
15. Oripova, K. (2023). PROBLEMS IN THE STUDY OF ANTONYMS IN COMPARATIVE LINGUISTICS. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Oripova, K. (2022). Turli tillardagi antonimlarning strukturaviy jihatlari. *Scienceweb academic papers collection*.

17. Oripova, K. (2022). Ingliz tilidagi antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari. *Scienceweb academic papers collection*.

18. Oripova, K. (2022). THE CONCEPT OF "DISCOURSE" IN LINGUISTICS AND ITS LINGUISTIC INTERPRETATION. *Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch*.